INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

YAPONIYA YUMSHOQ KUCHINING O‘ZBEKISTONDAGI TA’SIRI: RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI VA TA’LIM HAMKORLIGI MISOLIDA TAHLIL

Durdona Toshboyeva
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tayanch-doktoranti
toshboyevadurdona@gmail.com
Tel: +998990029865

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yaponiya yumshoq kuchining O‘zbekistondagi ta’siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot xalqaro munosabatlar nazariyasidagi “yumshoq kuch” konsepsiyasiga asoslanib, Yaponiya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari — rasmiy rivojlanish yordami (ODA), ta’lim hamkorligi va madaniy diplomatiya orqali amalga oshirilayotgan ta’sir mexanizmlarini o‘rganadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya O‘zbekistonda bevosita siyosiy bosimdan ko‘ra, institutsional va ijtimoiy vositalar orqali uzoq muddatli ta’sirni shakllantirmoqda. Shu bilan birga, Yaponiya yumshoq kuchining samaradorligi mintaqadagi boshqa yirik aktorlar bilan raqobat sharoitida muayyan cheklovlarga ega ekanligi aniqlanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Yaponiya yumshoq kuchining O‘zbekiston misolida konkret mexanizmlar orqali tahlil qilinganidadir.
Kalit so‘zlar: yumshoq kuch, Yaponiya tashqi siyosati, O‘zbekiston, ODA, ta’lim diplomatiyasi, Markaziy Osiyo.

Abstract. This article examines the impact of Japan’s soft power in Uzbekistan through a comprehensive analytical framework. Drawing on the concept of soft power in international relations theory, the study explores the key mechanisms of Japan’s foreign policy, including Official Development Assistance (ODA), educational cooperation, and cultural diplomacy. The findings demonstrate that Japan exerts its influence not through direct political pressure, but through long-term institutional and social engagement. At the same time, the effectiveness of Japan’s soft power is constrained by structural factors and competition with other major actors in the region. The study contributes to the literature by providing an empirically grounded analysis of Japan’s soft power in the specific context of Uzbekistan.
Keywords: soft power, Japanese foreign policy, Uzbekistan, ODA, educational diplomacy, Central Asia.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируется влияние мягкой силы Японии в Узбекистане. Исследование основано на концепции «мягкой силы» в теории международных отношений и рассматривает основные механизмы внешней политики Японии, включая официальную помощь развитию (ODA), образовательное сотрудничество и культурную дипломатию. Результаты анализа показывают, что Япония оказывает влияние не через прямое политическое давление, а посредством долгосрочных институциональных и социальных механизмов. В то же время выявлено, что эффективность мягкой силы Японии ограничена рядом факторов, включая конкуренцию с другими крупными акторами в регионе. Научная новизна исследования заключается в анализе конкретных механизмов реализации мягкой силы Японии на примере Узбекистана.
Ключевые слова: мягкая сила, внешняя политика Японии, Узбекистан, ODA, образовательная дипломатия, Центральная Азия.

KIRISH

XXI asr xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar o‘rtasidagi raqobat nafaqat harbiy yoki iqtisodiy qudrat orqali, balki “yumshoq kuch” (soft power) vositalari orqali ham amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, harbiy imkoniyatlari cheklangan yoki normativ diplomatiyaga tayanadigan davlatlar uchun yumshoq kuch tashqi siyosatning muhim instrumentiga aylangan. Shu nuqtai nazardan, Yaponiya tashqi siyosati alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, u o‘z ta’sirini asosan iqtisodiy hamkorlik, rivojlanish yordami va madaniy diplomatiya orqali amalga oshirib kelmoqda.

“Yumshoq kuch” tushunchasi ilk bor amerikalik olim J. Nay tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u davlatning boshqa aktorlarni majburlashsiz, balki jalb qilish va ishontirish orqali o‘z manfaatlariga yo‘naltira olish qobiliyatini anglatadi[1]. Ushbu konsepsiya zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasida keng qo‘llanilib, davlatlarning tashqi siyosatini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yaponiya Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan O‘zbekistonda aynan shu yumshoq kuch instrumentlari orqali faoliyat yuritib kelmoqda. 1991-yildan so‘ng O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilib, qisqa vaqt ichida iqtisodiy, texnik va gumanitar hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, Yaponiya tomonidan ko‘rsatilayotgan rasmiy rivojlanish yordami (ODA), ta’lim dasturlari, hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar ushbu hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar asosan mintaqaviy darajada o‘rganilgan bo‘lib, ko‘plab tadqiqotlarda Yaponiya siyosatining umumiy strategik yo‘nalishlari yoritilgan (Uyama T., 2008; Len C., 2005; Rakhimov M., 2014). Biroq ushbu siyosatning alohida davlat, xususan O‘zbekiston misolida qanday konkret mexanizmlar orqali amalga oshirilayotgani yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan.

Shu bois, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Yaponiya yumshoq kuchining O‘zbekistondagi ta’sirini rasmiy rivojlanish yordami (ODA), ta’lim hamkorligi va madaniy diplomatiya vositalari orqali kompleks tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- yumshoq kuch konsepsiyasining nazariy asoslarini yoritish;
- Yaponiya tashqi siyosatida yumshoq kuchning o‘rnini aniqlash;
- O‘zbekistonda Yaponiya yumshoq kuchining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish;
- ushbu ta’sirning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Yaponiya yumshoq kuchi abstrakt nazariy tushuncha sifatida emas, balki O‘zbekiston bilan ikki tomonlama munosabatlar doirasida konkret siyosiy va institutsional mexanizmlar orqali tahlil qilinadi. Bu esa Yaponiya tashqi siyosatining real amaliy natijalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yaponiya yumshoq kuchi va uning Markaziy Osiyodagi, xususan O‘zbekistondagi ta’sirini o‘rganish zamonaviy xalqaro munosabatlar tadqiqotlarida ko‘p qatlamli yondashuvni talab qiladigan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlar nazariy va mintaqaviy jihatdan segmentlangan bo‘lib, ular o‘rtasida muayyan metodologik uzilish mavjud.

Avvalo, “yumshoq kuch” konsepsiyasi J. Nay tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u xalqaro siyosatda ta’sirning majburlashsiz shakllarini tushuntiruvchi nazariy model sifatida qaraladi[2]. Nayning yondashuvi davlatlarning tashqi siyosatini faqat harbiy yoki iqtisodiy resurslar orqali emas, balki madaniyat, siyosiy qadriyatlar va tashqi siyosat legitimligi orqali ham amalga oshirish mumkinligini asoslab beradi. Shu jihatdan, ushbu konsepsiya Yaponiya tashqi siyosatini tahlil qilishda ayniqsa dolzarb hisoblanadi, chunki Yaponiya an’anaviy “hard power” instrumentlaridan nisbatan kam foydalanadi.

[1] [1] Най Дж. Мягкая сила: средство достижения успеха в мировой политике. – М.: Аспект Пресс, 2004.
[2] Checkel J. T. The Constructivist Turn in International Relations Theory // World Politics. – 1998. – Vol. 50. No. 2.

Biroq, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda Nay konsepsiyasi tanqidsiz qabul qilinmaydi. Ayrim tadqiqotchilar yumshoq kuchni mustaqil fenomen emas, balki davlat strategiyasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, uni realizm va liberalizm elementlari bilan bog‘liq holda talqin qiladi[2]. Bu yondashuv Yaponiya siyosatini tahlil qilishda muhim, chunki mamlakatning Markaziy Osiyodagi faoliyati faqat “jalb qilish” bilan emas, balki strategik manfaatlar bilan ham belgilanadi.

Yaponiya tashqi siyosatining Markaziy Osiyodagi yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan geosiyosiy va iqtisodiy omillarni tahlil qilishga qaratilgan. Xususan, C. Len Yaponiya siyosatini energiya xavfsizligi, Rossiya va Xitoy bilan muvozanatni saqlash hamda yangi bozorlarni egallash strategiyasi bilan bog‘laydi[3]. Uning fikricha, Yaponiya ushbu mintaqada harbiy vositalardan foydalanmasdan, iqtisodiy va diplomatik mexanizmlar orqali o‘z ta’sirini mustahkamlashga intiladi. Bu esa “yumshoq kuch”ning amaliy ko‘rinishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Yevropa tadqiqotchilari, jumladan M. Laruelle va S. Peyrouse, Yaponiya siyosatini “Silk Road diplomacy” doirasida tahlil qilib, uning asosiy xususiyati sifatida normativ va institutsional yondashuvni ajratib ko‘rsatadi[4]. Ularning ta’kidlashicha, Yaponiya Markaziy Osiyoda o‘zini geosiyosiy raqobatchi sifatida emas, balki rivojlanish hamkori sifatida pozitsiyalashga harakat qiladi. Bu esa uning yumshoq kuch strategiyasining asosiy elementidir.

Yapon ilmiy maktabi ushbu masalaga yanada chuqurroq yondashadi. T. Uyama Yaponiya va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni tarixiy identitet va madaniy narrativlar orqali tahlil qilib, “Silk Road” konsepsiyasining siyosiy instrument sifatida qo‘llanilishini ko‘rsatadi[5]. Bu yondashuv konstruktivizm doirasida Yaponiya yumshoq kuchining ideologik asoslarini ochib beradi.

Shuningdek, zamonaviy yapon va xalqaro tadqiqotlarda Yaponiya siyosati “value-based diplomacy” sifatida talqin qilinmoqda. A. Muratbekova ushbu konsepsiya orqali Yaponiya Markaziy Osiyoda demokratiya, inson kapitali va institutsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash orqali ta’sir ko‘rsatayotganini ta’kidlaydi[6]. Bu esa yumshoq kuchning normativ komponentini kuchaytiradi.

Postsovet hududidagi tadqiqotlar esa Yaponiya siyosatini ko‘proq empirik jihatdan o‘rganadi. M. Raximov Yaponiya Markaziy Osiyoda yirik donor davlat sifatida faoliyat yuritayotganini ko‘rsatib, ODA dasturlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’sirini tahlil qiladi[7]. Biroq ushbu tadqiqotlarda Yaponiya ta’sirining chegaralari ham ko‘rsatiladi, xususan uning iqtisodiy ta’siri Xitoy bilan solishtirganda ancha past ekanligi qayd etiladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarning asosiy kamchiligi shundaki, ular Yaponiya siyosatini asosan mintaqaviy darajada tahlil qiladi va alohida davlatlar kesimida chuqur empirik tadqiqotlar yetarli emas. Xususan, O‘zbekiston misolida Yaponiya yumshoq kuchining konkret mexanizmlari — ta’lim, ODA va madaniy diplomatiya orqali amalga oshirilishi tizimli ravishda o‘rganilmagan.

Shu bois, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, Yaponiya yumshoq kuchining O‘zbekistondagi real amaliy shakllarini kompleks tahlil qilishni maqsad qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot kompleks nazariy va empirik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning nazariy asosini J. Nayning yumshoq kuch konsepsiyasi tashkil etadi[1]. Ushbu konsepsiya davlatlarning xalqaro ta’sirini normativ va institutsional vositalar orqali tushuntirish imkonini beradi.

Biroq, tadqiqotda ushbu konsepsiya tanqidsiz qabul qilinmadi. Aksincha, u realizm va liberalizm yondashuvlari bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Realistik yondashuv Yaponiya siyosatining geosiyosiy va strategik motivlarini aniqlashga xizmat qilsa, liberal yondashuv iqtisodiy hamkorlik va institutsional mexanizmlarning rolini tushuntirishga imkon berdi. Konstruktivistik yondashuv esa madaniyat va identitet omillarining ta’sirini tahlil qilishda qo‘llanildi[2].

[3] Ministry of Foreign Affairs of Japan. Diplomatic Bluebook. – Tokyo, 2023.
[4] Laruelle M., Peyrouse S. Globalizing Central Asia. – London: Routledge, 2013.
[5] Uyama T. Japan’s Silk Road Diplomacy and Central Asia. – Sapporo, 2008.
[6] Muratbekova A. Japan’s Value-Based Diplomacy // Eurasian Research Journal. – 2023.
[7] Rakhimov M. Central Asia and Japan // Journal of Eurasian Studies. – 2014.

Metodologik jihatdan tadqiqot sifat (qualitative) tahlilga asoslangan bo‘lib, unda bir nechta ilmiy metodlar qo‘llanildi. Qiyosiy-tahliliy metod orqali Yaponiya yumshoq kuchining asosiy komponentlari — ODA, ta’lim va madaniy diplomatiya — o‘zaro solishtirildi. Bu esa ularning ta’sir darajasini differensial tahlil qilish imkonini berdi.

Kontent-tahlil metodi yordamida Yaponiya hukumatining rasmiy hujjatlari, xususan MOFA materiallari, diplomatik bayonotlar va JICA hisobotlari o‘rganildi[3]. Ushbu metod siyosatning deklarativ va amaliy jihatlari o‘rtasidagi tafovutni aniqlash imkonini berdi.

Case-study yondashuvi doirasida O‘zbekiston tanlab olinib, unda Yaponiya yumshoq kuchining konkret mexanizmlari tahlil qilindi. Bu yondashuv nazariy modelni empirik dalillar bilan bog‘lash imkonini berdi.

Shuningdek, tizimli yondashuv orqali Yaponiya siyosati global va mintaqaviy kontekstda baholandi. Bu esa uning boshqa aktorlar bilan raqobatdagi o‘rnini aniqlashga yordam berdi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Yaponiya yumshoq kuchining institutsional asosi: ODA orqali ta’sir mexanizmi

Yaponiya yumshoq kuchining O‘zbekistondagi eng muhim instrumentlaridan biri bu rasmiy rivojlanish yordami (Official Development Assistance – ODA) hisoblanadi. Yaponiya tashqi siyosatida ODA nafaqat iqtisodiy hamkorlik vositasi, balki strategik ta’sir instrumenti sifatida ham qo‘llaniladi.

Yaponiya O‘zbekistonga mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab faol moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu yordam infratuzilma, energetika, transport va inson kapitalini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shu jihatdan, ODA Yaponiya uchun “ko‘rinmas ta’sir” mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi, chunki u bevosita siyosiy bosim o‘rniga iqtisodiy va institutsional bog‘liqlikni shakllantiradi.

Biroq, ushbu jarayonni faqat altruistik yordam sifatida talqin qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya ODA orqali mintaqada uzoq muddatli strategik manfaatlarini ham ilgari suradi. Xususan, energetika resurslariga kirish, logistika yo‘laklarini rivojlantirish va siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi omillar ushbu siyosatning yashirin komponentlarini tashkil etadi[8].

Shu bilan birga, Yaponiya ODA modelining o‘ziga xos jihati shundaki, u Xitoyning “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusidan farqli ravishda katta hajmdagi tezkor investitsiyalarga emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanish va institutsional barqarorlikka yo‘naltirilgan. Bu esa Yaponiya yumshoq kuchining sifat jihatidan ustunligini ta’minlaydi, biroq miqyos jihatidan uni cheklaydi.

Ta’lim diplomatiyasi: inson kapitali orqali uzoq muddatli ta’sir

Yaponiya yumshoq kuchining eng samarali yo‘nalishlaridan biri ta’lim hamkorligi hisoblanadi. Xususan, MEXT stipendiyalari, akademik almashinuv dasturlari va texnik tayyorlov loyihalari orqali Yaponiya O‘zbekistonda yuqori malakali kadrlar tayyorlashga hissa qo‘shmoqda.

Ta’lim diplomatiyasining asosiy xususiyati shundaki, u qisqa muddatli siyosiy natijalarga emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy va institutsional transformatsiyaga yo‘naltirilgan. Yaponiya universitetlarida tahsil olgan mutaxassislar keyinchalik davlat boshqaruvi, biznes va ta’lim tizimida faoliyat yuritib, Yaponiya modeli va qadriyatlarini bilvosita tarqatadi.

Bu jarayon konstruktivistik nuqtai nazardan qaralganda, identitet va bilim orqali ta’sir o‘tkazish mexanizmi sifatida baholanishi mumkin. Ya’ni, Yaponiya o‘z ta’sirini majburlash orqali emas, balki “normativ integratsiya” orqali amalga oshiradi[9].

Biroq ushbu modelning ham cheklovlari mavjud. Birinchidan, ta’lim orqali ta’sir uzoq muddat talab qiladi va uning natijalari darhol sezilmaydi. Ikkinchidan, bu jarayon elita darajasida chegaralanib qolishi mumkin, ya’ni keng ijtimoiy qatlamlarga to‘liq ta’sir ko‘rsatmasligi ehtimoli mavjud.

Madaniy va normativ ta’sir: “value-based diplomacy”ning amaliy ko‘rinishi

Yaponiya tashqi siyosatida “qadriyatlarga asoslangan diplomatiya” muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuv demokratiya, huquq ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish kabi universal qadriyatlarni ilgari surishni nazarda tutadi.

[8] Len C. Japan’s Central Asian Diplomacy: Motivations, Implications and Prospects // China and Eurasia Forum Quarterly. – 2005.
[9] Nye J. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York, 2004.

O‘zbekistonda Yaponiya ushbu yondashuvni asosan madaniy va gumanitar loyihalar orqali amalga oshiradi. Yapon tili markazlari, madaniy almashinuv dasturlari va texnik yordam loyihalari ushbu siyosatning asosiy vositalari hisoblanadi.

Biroq bu jarayonni bir tomonlama ijobiy deb baholash mumkin emas. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya qadriyatlarga asoslangan diplomatiyasi ba’zan lokal siyosiy va ijtimoiy sharoitlar bilan to‘liq mos kelmasligi mumkin. Bu esa uning ta’sirini cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi[10].

Yaponiya yumshoq kuchining cheklovlari va raqobat muammosi

Yaponiya yumshoq kuchi yuqori sifatga ega bo‘lishiga qaramay, uning mintaqadagi ta’siri bir qator omillar bilan cheklanadi. Eng muhim omillardan biri — Xitoy va Rossiya kabi yirik aktorlar bilan raqobatdir.

Xitoy mintaqada katta hajmdagi investitsiyalar orqali tezkor iqtisodiy ta’sirni ta’minlayotgan bo‘lsa, Yaponiya sekin va bosqichma-bosqich modelni qo‘llaydi. Natijada, Yaponiya ta’siri ko‘proq “chuqur”, ammo “tor” bo‘lib qoladi.

Shuningdek, geografik masofa, logistika muammolari va iqtisodiy aloqalarning nisbatan past darajada rivojlanganligi ham Yaponiya siyosatining samaradorligini cheklaydi[11].

Shu sababli, Yaponiya yumshoq kuchi O‘zbekistonda muhim rol o‘ynayotgan bo‘lsa-da, u to‘liq dominant strategiyaga aylangan deb aytish qiyin. Aksincha, u mintaqadagi boshqa aktorlar bilan birgalikda faoliyat yurituvchi “komplementar ta’sir” sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda Yaponiya yumshoq kuchining O‘zbekistondagi ta’siri kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya tashqi siyosati an’anaviy harbiy yoki bosimga asoslangan strategiyadan farqli ravishda, ko‘proq iqtisodiy hamkorlik, ta’lim diplomatiyasi va normativ qadriyatlar orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Yaponiya yumshoq kuchining asosiy mexanizmlari sifatida uchta yo‘nalish ajratildi: rasmiy rivojlanish yordami (ODA), ta’lim hamkorligi va madaniy-normativ diplomatiya. Ushbu yo‘nalishlar orqali Yaponiya O‘zbekistonda bevosita siyosiy bosim o‘rnatmasdan, balki institutsional va ijtimoiy ta’sirni shakllantirishga erishmoqda.

Birinchidan, ODA orqali Yaponiya O‘zbekistonda infratuzilma va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish bilan birga, uzoq muddatli hamkorlik va ishonch asoslarini yaratmoqda. Bu jarayon yumshoq kuchning iqtisodiy komponenti sifatida namoyon bo‘lib, davlatlar o‘rtasida bilvosita bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, ta’lim diplomatiyasi Yaponiya siyosatining eng barqaror va uzoq muddatli ta’sir mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Inson kapitalini rivojlantirish orqali Yaponiya o‘z qadriyatlari va boshqaruv modelini bilvosita eksport qilmoqda. Bu esa konstruktivistik yondashuv nuqtai nazaridan identitet va bilim orqali ta’sir shakllanishini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, madaniy va normativ diplomatiya orqali Yaponiya o‘zini “ishonchli va hamkor davlat” sifatida pozitsiyalashga erishmoqda. Bu esa uning xalqaro imijini mustahkamlash bilan birga, O‘zbekistondagi ijtimoiy qabul darajasini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot Yaponiya yumshoq kuchining muayyan cheklovlarga ega ekanligini ham ko‘rsatdi. Xususan, uning ta’siri Xitoy kabi aktorlar bilan solishtirganda iqtisodiy miqyos jihatidan cheklangan. Bundan tashqari, ta’lim va madaniy diplomatiya uzoq muddatli natija berishi sababli, qisqa muddatda sezilarli siyosiy natijalar bermaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya yumshoq kuchi O‘zbekistonda dominant emas, balki komplementar xarakterga ega bo‘lib, u mintaqadagi boshqa aktorlar bilan parallel ravishda faoliyat yuritadi. Bu esa Yaponiya strategiyasining o‘ziga xosligini — raqobatdan ko‘ra hamkorlikka asoslangan modelini namoyon etadi.

[10] Muratbekova A. Japan’s Value-Based Diplomacy // Eurasian Research Journal. – 2023.
[11] Rakhimov M. Central Asia and Japan // Journal of Eurasian Studies. – 2014.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda Yaponiya yumshoq kuchi abstrakt nazariy tushuncha sifatida emas, balki O‘zbekiston misolida konkret siyosiy va institutsional mexanizmlar orqali tahlil qilindi. Bu esa Yaponiya tashqi siyosatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya siyosatini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek O‘zbekistondagi aniq loyihalar darajasida empirik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Най Дж. Мягкая сила: средство достижения успеха в мировой политике. – М.: Аспект Пресс, 2004.
2. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004.
3. Checkel J. T. The Constructivist Turn in International Relations Theory // World Politics. – 1998. – Vol. 50, No. 2. – P. 324–348.
4. Len C. Japan’s Central Asian Diplomacy: Motivations, Implications and Prospects for the Region // China and Eurasia Forum Quarterly. – 2005. – Vol. 3, No. 3. – P. 127–149.
5. Laruelle M., Peyrouse S. Globalizing Central Asia: Geopolitics and the Challenges of Economic Development. – London: Routledge, 2013.
6. Peyrouse S. Japan’s Silk Road Diplomacy and Central Asia // Central Asian Affairs. – 2017. – Vol. 4, No. 1. – P. 1–15.
7. Uyama T. Japan’s Silk Road Diplomacy and Central Asia. – Sapporo: Slavic Research Center, 2008.
8. Dadabaev T. Japan in Central Asia: Strategies, Initiatives and Influence. – Tokyo: University of Tsukuba Press, 2021.
9. Muratbekova A. Japan’s Value-Based Relationship in Action: The Case of Central Asia // Eurasian Research Journal. – 2023. – Vol. 5, No. 2. – P. 19–33.
10. Rakhimov M. Central Asia and Japan: Bilateral and Multilateral Relations // Journal of Eurasian Studies. – 2014. – Vol. 5, No. 1. – P. 77–87.
11. Kassenova N. Japan’s Central Asia Strategy // Asia Policy. – 2009. – No. 8. – P. 139–150.
12. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Diplomatic Bluebook 2023. – Tokyo, 2023.
13. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Central Asia + Japan Dialogue. – Tokyo, 2023.
14. Japan International Cooperation Agency (JICA). Annual Report 2022. – Tokyo, 2022.
15. Japan International Cooperation Agency (JICA). Uzbekistan: Country Analysis Paper. – Tokyo, 2020.
16. OECD. Japan’s Official Development Assistance: Policy and Performance. – Paris, 2021.
17. UNDP. Human Development Report: Central Asia Regional Overview. – New York, 2022.